

## **“Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish” mavzusida**

### **amaliy seminar o‘tkazildi**

2023-yil 19-may kuni “O‘zbekiston respublika tovar-xom ashyo birjasi” AJ va O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti tomonidan “Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish sohasi bo‘yicha olib borilayotgan ishlar va qonunchilik tizimidagi yangiliklar” mavzusiga bag‘ishlangan amaliy seminar o‘tkazildi.

“O‘zbekiston respublika tovar xom-ashyo birjasi” AJ Komplayens nazorat va axborot xavfsizligi Bosh boshqarmasi tashabbusi bilan tashkil etilgan seminarda birjaning markaziy apparat xodimlari bilan birga hududiy filiallar xodimlari, Zoom videokonferensiya dasturi orqali, ishtirok etdi.

Seminar mamlakatimizning iqtisodiy sohalarida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi samaradorligini oshirish, eng yuqori darajadagi qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, mamlakatimizning xalqaro maydondagi ijobiy obro‘-e‘tiborini yuksaltirish hamda iqtisodiy jinoyatlarga qarshi olib borilayotgan ishlar to‘g‘risida ma‘lumot berish maqsadida tashkil etildi.

Seminar davomida O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti xodimi Nurmatov Jasur Tashmuradovich “Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish sohasi bo‘yicha olib borilayotgan ishlar va qonunchilik tizimidagi yangiliklar” mavzusida ma‘ruza qildi.

Ma‘ruza davomida, Departamentning ish faoliyati to‘g‘risida seminar ishtirokchilariga umumiy tushunchalarni berilib, asosiy faoliyat yo‘nalishlaridan biri davlat xaridlarida qonunchilik talablariga bir xilda amal qilinishini ta‘minlash ekanligi alohida ta‘kidlab o‘tildi.

J. Nurmatov davlat xaridlari sohasini yana-da rivojlantirish yuzasidan o‘zining fikr va mulohazalarini seminarga tashrif buyurgan xodimlarga bildirib o‘tdi.

Jumladan, davlat xaridlarida lotlar moderatsiyasida inson omilini imkon qadar kamaytirish, savdo jarayonini avtomatlashtirishga katta e‘tibor berish maqsadga muvofiq ekanligini aytib o‘tdi.

Seminar yakunida birja xodimlari o‘zlarini qiziqtirgan savollarga javob oldilar.